

Toshkent shahridagi korxonalar va tashkilotlar demografiyasi bo'yicha ma'lumot

2020-yil 1-may holatiga ko'ra
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.


Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.

Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.

Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxonalar va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 25-sentabrdagi "Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida"gi 274-son qaroriga muvofiq korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri bazasi yuritiladi.


2020-yil 1-may holatiga ko‘ra 91 609 ta korxonalar va tashkilotlar ro‘yxatdan o‘tgan bo‘lib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 16,6 foizga o‘sgan. Natijada, faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni o‘tgan yilning shu davriga solishtirilganda 11 489 ta (15,1 %) ga o‘sgan hamda ularning umumiy soni 87 481 tani tashkil etgan.




Ro‘yxatdan o‘tgan korxonalar va tashkilotlar (fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha jamiga nisbatan 26,2 % savdo, 16,8 % sanoat, 7,9 % qurilish, 7,2 % yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar, 4,0 % tashish va saqlash, 4,0 % axborot va aloqa, 1,8 % sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish, 0,9 % qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaliklari hamda 31,2 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar ulushi, % (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Tumanlar bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Tumanlar kesimida ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'p Yunusobod (12 103 ta), Chilonzor (11 753 ta), Mirzo Ulug'bek (10 147 ta), Olmazor (9 368 ta), Shayxontohur (9 019 ta), Uchtepa (8 486 ta), Yakkasaroy (8 013 ta) va Mirobod (7 977 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Yashnobod (7 066 ta), Sirg'ali (5 530 ta) hamda Bektemir (2 147 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 87 481 tani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 11 489 ta (15,1 %) ga o'sgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar ulushi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'p Yunusobod (11 297 ta), Chilonzor (11 273 ta), Mirzo Ulug'bek (9 837 ta), Olmazor (9 150 ta), Shayxontohur (8 494 ta), Uchtepa (8 134 ta), Yakkasaroy (7 805 ta) va Mirobod tumanlari (7 536 ta) hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Yashnobod (6 547 ta), Sirg'ali (5 333 ta) hamda Bektemir (2 075 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.


**Tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan
korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)


2020-yil yanvar-aprel oylarida 4 806 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3 348 birlikka kamdir.

2016–2020-yillarning yanvar-aprel oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi Chilonzor (609 ta), Uchtepa (596 ta), Yunusobod (570 ta), Mirzo Ulug'bek (514 ta), Shayxontohur (494 ta), Olmazor (449 ta) va Yashnobod (377 ta), tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Yakkasaroy (366 ta), Mirobod (357 ta), Sirg'ali (339 ta) hamda Bektemir (135 ta) tumanlarida korxonalar va tashkilotlarning tashkil etilish ko'rsatkichi past darajani aks ettirgan.

2020-yil yanvar-aprel oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning tumanlar bo'yicha soni, birlikda (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



2020-yil yanvar-aprel oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Yangi tashkil etilgan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p savdo (2 042 ta), sanoat (582 ta), qurilish (427 ta), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (348 ta) va axborot va aloqa (213 ta) sohalarida yangi tashkil etilgan. Eng kam esa tashish va saqlash (153 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (76 ta) hamda qishloq, o'rmon va baliq xo'jaliklari (48 ta) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelgan.


Tijorat korxonalari

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2020-yil 1-may holatiga ko'ra 82 139 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, shundan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 64 389 ta, xususiy korxonalar – 13 268 ta, oilaviy korxonalar – 3 134 ta, unitar korxonalar – 610 ta, aksiyadorlik jamiyatlari – 231 ta va boshqalar 507 tani tashkil etgan.

Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha ro'yxatdan o'tgan tijorat korxonalarining soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar

Ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2020-yil 1-may holatiga ko'ra 64 389 tani tashkil etib, ulardan 61 695 tasi yoki 95,8 % faoliyat ko'rsatadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 9 620 taga yoki 18,5 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


2020-yil yanvar-aprel oylarida 3 767 ta mas'uliyati cheklangan jamiyatlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 620 birlikka kamdir.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning soni, birlikda

	01.05.2020 yil		2020-yil yanvar-aprel oylari
	ro'yxatdan o'tgan	faoliyat ko'rsatayotgan	yangi tashkil etilgan
Jami	64 389	61 695	3 767
<i>shundan:</i>			
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaliklari	653	612	35
Sanoat	11 615	11 156	467
Qurilish	6 405	6 154	401
Savdo	18 224	17 492	1 544
Tashish va saqlash	3 165	3 059	138
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	4 720	4 449	252
Axborot va aloqa	2 922	2 781	184
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	1 109	1 081	67
Boshqa turlari	15 576	14 911	679

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko‘rsatayotgan mas’uliyati cheklangan jamiyatlarning eng ko‘p jamidagi ulushi savdo – 28,4 %, sanoat – 18,1 %, qurilish – 9,9 % hamda yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar – 7,2 % ga to‘g‘ri keladi. Nisbatan kamlari esa tashish va saqlash faoliyat turlarida – 5,0 %, axborot va aloqa – 4,5 %, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish – 1,7 % hamda qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaliklarida – 1,0 % ga to‘g‘ri kelgan.

Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo‘yicha faoliyat ko‘rsatayotgan tijorat korxonalarining tumanlar bo‘yicha taqsimoti, birlikda (fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)



■ mas'uliyati cheklangan jamiyatlar
■ oilaviy korxonalar

■ xususiy korxonalar
■ boshqalar

Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2020-yil 1-may holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 77 161 tani tashkil etgan. Bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 16,2 % ga oshgan.

Tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlikda (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

	kichik korxonalar va mikrofirmalar soni	shundan:	
		kichik korxonalar	mikrofirmalar
Toshkent shahar	77 161	7 085	70 076
<i>tumanlar:</i>			
Uchtepa	7 443	467	6 976
Bektemir	1 896	246	1 650
Yunusobod	9 874	826	9 048
Mirzo Ulug'bek	8 514	813	7 701
Mirobod	6 354	757	5 597
Shayhontohur	7 290	591	6 699
Olmazor	8 334	729	7 605
Sirg'ali	4 816	421	4 395
Yakkasaroy	6 989	746	6 243
Yashnobod	5 727	633	5 094
Chilonzor	9 924	856	9 068

2020-yil 1-may holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning umumiy sonida tumanlar ulushi, % da (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Eng katta ulush


Eng kichik ulush



Chilonzor tumani
12,9 %



Yakkasaroy tumani
9,1 %



Yunusobod tumani
12,8 %



Mirobod tumani
8,2 %



Mirzo Ulug'bek tumani
11,0 %



Yashnobod tumani
7,4 %



Olmazor tumani
10,8 %



Sirg'ali tumani
6,2 %



Uchtepa tumani
9,6 %



Bektemir tumani
2,5 %




Shayhontohur tumani
9,5 %

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi, ya'ni 9 924 tasi (12,9 %) Chilonzor, 9 874 tasi (12,8 %) Yunusobod, 8 514 tasi (11,0 %) Mirzo Ulug'bek hamda 8 334 tasi (10,8 %) Olmazor tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko‘rsatayotgan jami 77 161 ta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 22 685 ta (29,4 %) – savdo, 14 527 ta (18,8 %) – sanoat, 6 894 ta (8,9 %) – qurilish, 6 039 ta (7,8 %) – yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasi, 3 428 ta (4,4 %) – tashish va saqlash bo‘yicha xizmatlar sohasi, 3 369 ta (4,4 %) – axborot va aloqa sohasi, 1 319 ta (1,7 %) – sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish, 774 ta (1,0 %) – qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaliklari, shuningdek 18 126 tasi (23,6 %) – boshqa faoliyat turlari hissalariga to‘g‘ri keladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha faoliyat ko‘rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulushi (fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)



2020-yil yanvar-aprel oylarida 4 638 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan bo‘lib, bu esa o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 3 259 taga birlikka kamdir. Eng ko‘p yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari Chilonzor (589 ta), Uchtepa (584 ta), Yunusobod (550 ta), Mirzo Ulug‘bek (499 ta), Shayxontohur (468 ta), Olmazor (430 ta) va Yashnobod (363 ta) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keladi. Eng kam Yakkasaroy (354 ta), Mirobod (339 ta), Sirg‘ali (327 ta) hamda Bektemir (135 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

2020-yil yanvar-aprel oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa ularning eng ko'p soni savdoda – 2 038 ta, sanoatda – 582 ta, qurilishda – 427 ta, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda – 344 ta, axborot va aloqada – 211 ta hamda tashish va saqlashda – 152 ta tashkil etilgan. Eng kamisi esa, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatishda – 75 ta hamda qishloq, o'rmon va baliq xo'jaliklarida – 48 ta tashkil etilgan.


Oilaviy korxonalar soni

Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2020-yil 1-may holatiga ko'ra 3 134 tani tashkil etib, ulardan 2 946 tasi yoki 94,0 % faoliyat ko'rsatadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yxatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha 21,9 % ga oshganligini ta'kidlash lozim.


Oilaviy korxonalar to'g'risida ma'lumot (birlikda)

	01.05.2020 y.		2020 yil yanvar-aprel oylari
	ro'yxatdan o'tgan	faoliyat ko'rsatayotgan	yangi tashkil etilgan
Toshkent shahri	3 134	2 946	189
<i>tumanlar:</i>			
Uchtepa	468	444	11
Bektemir	93	90	12
Yunusobod	369	339	24
Mirzo Ulug'bek	227	216	9
Mirobod	174	155	6
Shayxontohur	438	402	35
Olmazor	440	427	27
Sirg'ali	189	181	12
Yakkasaroy	163	160	17
Yashnobod	275	248	22
Chilonzor	298	284	14

Oilaviy korxonalar soni, birlikda




Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining tumanlar kesimidagi soni, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 38,8 % ya'ni 1 143 tasi sanoat, 21,0 % – 619 tasi savdo, 18,5 % – 544 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 2,7 % – 79 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaliklari, 1,8 % – 52 tasi axborot va aloqa, 1,6 % – 48 tasi qurilish, 1,1 % – 32 tasi tashish va saqlash, 1,0 % ya'ni 30 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hamda 13,5 % – 399 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining ulushi, % da



Agarda 2020-yil 1-may holatiga ko‘ra faoliyat ko‘rsatayotgan oilaviy korxonalarining sonini iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko‘rsak, eng ko‘pi – sanoat hamda savdoda, eng kami esa – sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish, shuningdek tashish va saqlash kabi faoliyat turlari hissalariga to‘g‘ri keladi.

2020-yil yanvar-aprel oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni, birlikda

	Korxonalar soni	Jamiga nisbatan ulushi, %
Toshkent shahri	189	100,0
<i>tumanlar:</i>		
Uchtepa	11	5,8
Bektemir	12	6,4
Yunusobod	24	12,7
Mirzo Ulug‘bek	9	4,8
Mirobod	6	3,2
Shayxontohur	35	18,5
Olmazor	27	14,3
Sirg‘ali	12	6,3
Yakkasaroy	17	9,0
Yashnobod	22	11,6
Chilonzor	14	7,4

Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining asosiy qismi Shayxontohur (35 ta), Olmazor (27 ta), Yunusobod (24 ta), Yashnobod (22 ta) va Yakkasaroy (17 ta) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keladi. Aksincha, Chilonzor (14 ta), Sirg‘ali (12 ta), Bektemir (12 ta), Uchtepa (11 ta), Mirzo Ulug‘bek (9 ta) hamda Mirobod (6 ta) tumanlarida ularning tashkil etish ko‘rsatkichi past darajani aks ettirgan.

2020-yil yanvar-aprel oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da




Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari kesimida taqsimlaganda ularning 30,7 % – 58 tasi sanoat, 28,5 % – 54 tasi savdo, 22,8 % – 43 tasi yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlari, 4,7 % – 9 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaliklari, 1,1 % – 2 tasi axborot va aloqa, 1,1 % – 2 tasi tashish va saqlash, 1,1 % – 2 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 0,5 % – 1 tasi qurilish hamda 9,5 % – 18 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.


Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar

2020-yil 1-may holatiga ko'ra ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 6 702 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 370 taga yoki 25,6 % ga o'sgan. Tumanlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining asosiy qismi Mirobod – 1 158 ta (jamidagi ulushi 17,3 %), Yakkasaroy – 1 037 ta (15,5 %), Yunusobod – 899 ta (13,4 %), Mirzo Ulug'bek – 823 ta (12,3 %), Chilonzor – 748 ta (11,1 %), Yashnobod – 532 ta (7,9 %) va Shayxontohur – 480 ta (7,2 %) tumanlarida tashkil etgan. Eng kam xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar Olmazor – 360 ta (5,4 %), Sirg'ali – 280 ta (4,2%), Uchtepa – 228 ta (3,4 %) hamda Bektemir – 157 ta (2,3 %) tumanlarida tashkil etgan.


Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining 2 813 tasi qo'shma, 3 889 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keladi.



Xorijiy kapital ishtirokida ro'yxatdan o'tgan korxonalarining davlatlar kesimidagi soni, birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining ulushi, % da



Xorijiy kapital ishtirokida ro'yxatdan o'tgan korxonalarining tumanlar kesimidagi soni, birlikda

	Jami	<i>shundan:</i>	
		qo'shma korxonona	xorijiy korxonona
Toshkent shahri	6 702	2 813	3 889
<i>tumanlar:</i>			
Uchtepa	228	84	144
Bektemir	157	86	71
Yunusobod	899	390	509
Mirzo Ulug'bek	823	373	450
Mirobod	1 158	362	796
Shayxontohur	480	237	243
Olmazor	360	191	169
Sirg'ali	280	147	133
Yakkasaroy	1 037	394	643
Yashnobod	532	254	278
Chilonzor	748	295	453

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar

2020-yil yanvar-aprel oylari yakunlari bo'yicha xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalar soni 425 tani tashkil etgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 201 taga kam.

Tumanlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokida yangi tashkil etilgan korxonalar asosiy qismi Mirobod (90 ta), Mirzo Ulug'bek (69 ta), Yakkasaroy (58 ta), Yunusobod (52 ta), Chilonzor (39 ta) va Yashnobod (29 ta) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokidagi Shayxontohur (28 ta), Olmazor (23 ta), Sirg'ali (19 ta), Uchtepa (13 ta) va Bektemir (5 ta) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.


2020-yil yanvar-aprel oylarida xorijiy kapital ishtirokida yangi tashkil etilgan korxonalar davlatlar kesimidagi soni, birlikda



Rossiya Federatsiyasi rezidentlarining kapitali ishtirokida 89 ta, Turkiya Respublikasi – 66 ta, Qozog'iston Respublikasi – 56 ta, Xitoy Xalq Respublikasi– 42 ta, Koreya Respublikasi – 33 ta va boshqa davlatlar kapitali ishtirokida 139 ta korxonalar yangi tashkil etilgan. Shuningdek, 2020-yilda Afg'oniston Islom Respublikasi, AQSh, Germaniya Federativ Respublikasi, Ozarbayjon Respublikasi, Hindiston Respublikasi va boshqa davlatlar rezidentlari qo'shma faoliyatga qiziqish bildirdilar.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan 164 tasi savdo, 70 tasi sanoat, 47 tasi qurilish va 144 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

2020-yil yanvar-aprel oylarida xorijiy kapital ishtirokida yangi tashkil etilgan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda



MDH davlatlari ishtirokida yangi tashkil etilgan korxonalar soni, birlikda

	Jami	<i>shundan:</i>	
		qo'shma korxonona	xorijiy korxonona
Rossiya Federatsiyasi	89	34	55
Qozog'iston Respublikasi	56	20	35
Ozarbayjon Respublikasi	14	4	10
Tojikiston Respublikasi	6	2	4
Qirg'iz Respublikasi	6	1	5
Belorussiya Respublikasi	5	2	3
Gruziya Respublikasi	5	2	3

MDH davlatlarining kapitali ishtirokidagi korxonalarining asosiy ulushi (*jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalariga nisbatan*) Rossiya Federatsiyasi – 20,9 %, Qozog'iston Respublikasi – 13,2 % va Ozarbayjon Respublikasi – 3,3 % ga to'g'ri kelmoqda.

Toshkent shahar statistika boshqarmasi
Statistik registrlarni yuritish bo'limi
Ye.V.Yegorova
tel.: 71 230-88-31